QASHQADARYO VILOYATI KASBI TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

180600, Kasbi tumani, Mustaqillik ko‘chasi. Faks (+99875) 642-24-66, N.Boyturdiyev@exat.uz

2021 йил «30» июль 280-4-61-Q/21 Касби туман ҳокимияти

Kasbi tumani hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilari o‘rnatish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalari, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 7-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 24 dekabrdagi 370-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati Qoidalari” talablariga asosan Kasbi tumani hududida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha profilaktik-ogohlantirish va og‘ir oqibatli yo‘l-transport hodisalarining oldini olish borasidagi ishlar samaradorligini oshirish yuzasidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan keng ko‘lamli tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar rejasini ijrosini ta’minlash maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Kasbi tuman hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida o‘rnatilishi lozim bo‘lgan yo‘l belgilari va manzili ilovaga asosan tasdiqlansin hamda mazkur yo‘l belgilarini o‘rnatishga ruxsat berilsin.

2. Kasbi tuman Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i F.Ibragimov, tuman ichki ishlar bo‘limi Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi boshlig‘i O.Eshmamatov va tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi direktori O.Siddiqovga tuman hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilarini o‘rnatish va doimiy nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

3. Mazkur qaror “SADOQAT” gazetasida e’lon qilinsin hamda hokimlikning kasbituman.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

4. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari Q.To‘rayev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **T.A.Мейлиев**

Касби туман ҳокимининг
2021 йил 30 июлдаги
280-4-61-Q/21-сон қарорига
1-илова

Tuman hududida umumfoydalanuvidagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida o‘rnatilishi lozim bo‘lgan yo‘l belgilari va manzili

RO‘YXATI

№	Yo‘l belgisi o‘rnatilgan manzil nomi	Yo‘l belgisini nomi
1.	4R92 “Qarshi-Kasbi-Jeynov-Pomuq” avtomobil yo‘lining 35-kilometri, Mustaqillik ko‘chasi “Faravon” savdo majmuasi oldida	**3.27 “To‘xtash ta’qiqlangan”**
2.	4R92 “Qarshi-Kasbi-Jeynov-Pomuq” avtomobil yo‘lining 32-kilometri, Kasbi tuman IIB YHXB ma’muriy binosi oldida	**3.27 “To‘xtash ta’qiqlangan”**
3.	4R92 “Qarshi-Kasbi-Jeynov-Pomuq” avtomobil yo‘lining 35-kilometri, Kasbi tuman “Dehqon bozori” oldida	**3.27 “To‘xtash ta’qiqlangan”**
4.	Kasbi tuman Mustaqillik ko‘chasidan tuman hokimligiga kirish yo‘li	**3.27 “To‘xtash ta’qiqlangan”**
5.	4K321 “Kasbi aylanma yo‘li” avtomobil yo‘lining 3-kilometri, Kasbi tuman 1-poliklinikasi oldida	**3.27 “To‘xtash ta’qiqlangan”**
6.	4R90 “Qarshi-Beshkent-Kasbi-Koson” avtomobil yo‘lining 41-kilometri, “Avtoshohbekat” oldida	**3.27 “To‘xtash ta’qiqlangan”**
7.	4R92 “Qarshi-Kasbi-Jeynov-Pomuq” avtomobil yo‘lining 32-kilometri, Kasbi tuman “Raxim ota” to‘yxonasi oldida	**3.27 “To‘xtash ta’qiqlangan”**